

Khan Academy O'zbek

MOLIYAVIY HISOBOT

Avgust, 2019

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ikkinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.

Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyihasini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.

2019-yil avgust oyida loyihaga 431 759 580 so'm xayriya qilindi, 164 978 598 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:


Xarajatlar ro'yxati	summa so'mda
Ma'muriy xarajatlar	-2 000 000
Bank xarajatlari	-443 609
Tarjima	-23 436 000
Tahrir	-2 000 000
Video	-14 080 000
Jihoz va uskunalar	-39 323 251
Marketing*	-37 610 600*
Fandreyzing (mablag' yig'ish)	-16 191 500**
Platforma integratsiyasi va targ'ibot***	-8 000 000
Aloqa xarajatlari (internet, telefon)	-700 000
Ta'mirlash va texnik xarajatlar	-4 246 200
Yo'l xarajatlari	-231 000
Soliqlar	-11 291 420
Boshqa xarajatlar	-5 425 018
Jami	-164 978 598

*Avgust oyining marketing xarajatlari o'z ichiga Khan Academy O'zbek brendi tushirilgan futbolka, krujka, ruchka, bloknot, paket va papkalarni ham olgan.


**Loyiha asoschilari avgust oyida AQSHga uyushtirgan safaridan ko'zlangan asosiy maqsadlardan bu u yerdagi vatandoshlarimizning e'tiborini ham loyihaga qaratish va fandreyzing edi. Safar davomida tarqatish uchun ta'limga oid va brendimiz tushirilgan futbolka, nishonlar, brelok va boshqa sovg'alar ham tayyorlandi.

***Platforma integratsiyasi va targ'ibot – bu Khan Academy platformasini davlat ta'lim dasturlariga joriy qilish, ya'ni maktablar va o'qituvchilar bilan ishlash jarayonidir.

Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:



Ya'ni avgust oyida xarajatlarning deyarli 24 foizi (39 516 000 so'm) kontentni yaratishga, ya'ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Video darslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Tayyor video darslarni [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>